

**SUD HUJJATLARINI MAJBURIY IJROSINI TA'MINLASHDA
SUDYANING VAKOLATLARI**

Eshqulov Sanjar Azamat o'g'li

Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti

Biznes huquqi yo'nalishi talabasi

E-mail: sanazamatovich@gmail.com

***Annotatsiya:** ushbu maqolada sud hujjatlarini majburiy ijrosini ta'minlashda sudyaning vakolatlari tahlil qilingan. Maqolada sud hujjatlarining majburiyligi prinsipi, ijro bosqichida sudyaning protsessual maqomi, ijro varaqasini berish, hal qiluv qarorini darhol ijroga qaratish, ijroni kechiktirish va bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish, davlat ijrochisi qarorlari va harakatlari ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqish kabi vakolatlar yoritib berilgan. Shuningdek, sud hujjatini ijro etmaslik va ijro jarayoniga aralashganlik uchun yuridik javobgarlik masalalari hamda 2024-yildagi yangi islohotlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida sudyaning ushbu sohadagi vakolatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** sud hujjati, majburiy ijro, ijro varaqasi, sudyaning vakolatlari, davlat ijrochisi, Majburiy ijro byurosi, ijroni kechiktirish, ijro usulini o'zgartirish, qaytarma ijro, ma'muriy sud.*

KIRISH

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida odil sudlov samaradorligi nafaqat sud muhokamasining sifati, balki sud tomonidan qabul qilingan hujjatlarning amalda to'liq va o'z vaqtida ijro etilishi bilan ham belgilanadi. Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan bo'lsa-da, uning ijrosi ta'minlanmagan taqdirda, sud orqali himoya qilish huquqi formal xarakter kasb etadi hamda fuqarolarning sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir

ko'rsatadi. Shu bois sud hujjatlarining majburiy ijrosi sud hokimiyati faoliyatining mantiqiy yakuni va odil sudlovning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 138-moddasiga muvofiq, sud hokimiyatining hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi.¹ "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida mazkur qoida yanada aniqlashtirilib, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari respublikaning butun hududida majburiy ijro etilishi shartligi hamda ularni ijro etmaslik qonunchilikda belgilangan javobgarlikka sabab bo'lishi mustahkamlab qo'yilgan.² Ushbu normalar sud hujjatlarining majburiylikini ta'minlovchi muhim huquqiy asosni tashkil etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud hujjatlarini ijro etish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2024-yil 3-yanvarda qabul qilingan PF-1-son Prezident Farmoni mazkur sohada islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur hujjatda ijro hujjatlarining yagona elektron bazasini shakllantirish, "Majburiyatlar reyestri" institutini joriy etish, ijro tartib-taomillarini soddalashtirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan qator muhim vazifalar belgilangan.

Sud hujjatlarini bevosita majburiy ijro etish vakolati O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi davlat ijrochilari zimmasiga yuklatilgan bo'lsa-da, ijro bosqichida sudyaning o'rnini va vakolatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sudya mazkur bosqichda ijro varaqasini rasmiylashtirish, sud qarorini darhol ijroga qaratish to'g'risida qaror qabul qilish, ijroni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 138-modda, <https://lex.uz/docs/-6445145>

² O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni, 28.07.2021-y., O'RQ-703-son, 10-modda. <https://lex.uz/docs/-5534923>

o'zgartirish, shuningdek, davlat ijrochilarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish kabi vakolatlarni amalga oshiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sud hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlashda sudyaning vakolatlarini kompleks ravishda o'rganish, ularning huquqiy asoslari hamda amaliy qo'llanilishini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shunga muvofiq, tadqiqot vazifalari sifatida sud hujjatlarining majburiyligi prinsipining huquqiy asoslarini ochib berish, sudyaning ijro bosqichidagi vakolatlarini tizimli tasniflash, sud hujjatlarini bajarmaslik uchun belgilangan yuridik javobgarlik masalalarini o'rganish hamda 2024-yilda qabul qilingan islohot hujjatlarining mazmun-mohiyatini tahlil qilish belgilab olindi.

METODLAR

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy-tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tahliliy metod yordamida sud hujjatlarini majburiy ijro etishga oid milliy qonunchilik hujjatlari chuqur o'rganildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Sudlar to'g'risida"gi qonun, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonun, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari va Prezident farmonlari tahlil qilindi.

Tizimli tahlil metodi sudyaning ijro bosqichidagi vakolatlarini yagona tizim doirasida o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligi va funksional uyg'unligini aniqlash maqsadida qo'llanildi. Mazkur yondashuv sudyaning vakolatlarini odil sudlovning

yakuniy bosqichi — ijro institutining ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini berdi.

Qiyosiy-huquqiy metod orqali turli protsessual kodekslar, jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda nazarda tutilgan sudyaning ijro bilan bog'liq vakolatlari o'zaro solishtirildi. Shu bilan birga, sud-ijro tizimining 2001-yildagi dastlabki shakli hamda 2024-yildagi islohotlardan keyingi holati o'rtasidagi asosiy farqlar ham tahlil etildi.

Maxsus-huquqiy metod esa "ijro varaqasi", "majburiy ijro", "ijroni kechiktirish", "ijro etish usulini o'zgartirish", "qaytarma ijro" kabi huquqiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berishda qo'llanildi.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar va amaldagi kodekslar, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy sud Plenumi qarorlari, ilmiy-nazariy adabiyotlar hamda elektron huquqiy axborot manbalari (lex.uz, gov.uz, norma.uz va boshqalar)dan keng foydalanildi.

NATIJARLAR

1. Sud hujjatlarining majburiyligi prinsipi va uning asoslari.

Sud hujjatlarining majburiyligi prinsipi sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash hamda odil sudlov samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim konstitutsiyaviy tamoyillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 138-moddasiga muvofiq, sud hokimiyati hujjatlari barcha davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 134-moddasi ikkinchi qismida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan qabul qilingan

hujjatlarning qat'iyliigi va ularning respublika hududida majburiy ijro etilishi mustahkamlangan.³

“Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasida mazkur qoida yanada rivojlantirilib, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiyligi belgilangan. Ushbu qoida protsessual qonunchilikda ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, Fuqarolik protsessual kodeksining 16-moddasi⁴, Iqtisodiy protsessual kodeksining 15-moddasi hamda Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 16-moddalarida sud hujjatlarining majburiyligi mustahkamlangan.

Mazkur prinsip bir qator muhim xususiyatlarga ega. Avvalo, u universal xarakterga ega bo‘lib, barcha subyektlarga — davlat organlari, mansabdor shaxslar, yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi. Ikkinchidan, u hududiy jihatdan to‘liq qamrovga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida amal qiladi. Uchinchidan, ushbu prinsip shartsiz xarakterga ega bo‘lib, qonunda nazarda tutilgan istisnolar bundan mustasno, sud hujjatini bajarishdan hech kim ozod etilmaydi. To‘rtinchidan, sud hujjatini bajarmaslik muqarrar ravishda yuridik javobgarlikka olib keladi.

2. Sudyaning hal qiluv qarorini qabul qilish bosqichidagi vakolatlari.

Sudyaning sud hujjatlarini majburiy ijrosini ta‘minlashga doir vakolatlari hal qiluv qarorini qabul qilish bosqichidayoq namoyon bo‘ladi. Fuqarolik protsessual kodeksining 251-moddasiga muvofiq, sud hal qiluv qarorini chiqarishda ishni

³“O‘zbekistonda sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari”. — O‘zbekiston Respublikasining Malayziyadagi Elchixonasi rasmiy sayti.

https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/jamiyat/ozbekistonda_sud_hokimiyati_mustaqilligining_konstitutsiyaviy_huquqiy_kafolatlari.html.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, 22.01.2018-y., 16-modda. <https://lex.uz/docs/3517337>.

mazmunan hal etish bilan birga uning keyingi ijrosini ham ta'minlashga qaratilgan choralarni ko'rish lozim. Shu bois sud qarorining mazmuni aniq, tushunarli va amalda ijro etilishi mumkin bo'lgan shaklda bayon etilishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlarida ham sud qarorlarining shartli va noaniq shaklda qabul qilinishiga yo'l qo'yilmasligi alohida ta'kidlangan. Bu esa sudya tomonidan qaror chiqarishda uning ijro etilish imkoniyati oldindan hisobga olinishi zarurligini anglatadi.⁵

Bundan tashqari, sudya hal qiluv qarorida sud xarajatlarini taqsimlash, ijro etish tartibi va muddatlarini belgilash masalalarini ham hal etishi shart. Fuqarolik protsessual kodeksining 255-moddasiga muvofiq, sudya qarorda uning ijro etilish tartibi va muddatlarini ko'rsatish vakolatiga ega. Xususan, mol-mulkni undirib berish to'g'risidagi qarorlarda undiriladigan mol-mulkning aniq tavsifi, qiymati hamda undiruv tartibi ko'rsatilishi zarur. Javobgar zimmasiga muayyan harakatlarni bajarish majburiyati yuklatilgan hollarda esa ushbu harakatlarni amalga oshirish muddati va tartibi aniq belgilanishi lozim.

3. Sudyaning hal qiluv qarorini darhol ijroga qaratish bo'yicha vakolatlari.

Umumiy qoida sifatida sud hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng ijroga qaratiladi. Shu bilan birga, qonunchilik ayrim hollarda sudyaga hal qiluv qarorini darhol ijroga qaratish vakolatini beradi. Fuqarolik protsessual kodeksining 266-moddasida darhol ijro etilishi lozim bo'lgan qarorlar ro'yxati belgilangan bo'lib, ular qatoriga aliment undirish, ish haqini undirish kabi ijtimoiy ahamiyatga ega talablar kiradi. Shuningdek, 267-moddaga muvofiq, sud muayyan asoslar

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-maydagi 12-son "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi qarori, 11-band. — <https://lex.uz/uz/docs/-4396483>.

mavjud bo‘lgan taqdirda o‘z tashabbusi bilan ham qarorni darhol ijroga qaratishi mumkin.⁶

Oliy sud Plenumi tushuntirishlariga ko‘ra, sud tashabbusi bilan darhol ijroga qaratish qarori tegishli asoslar bilan mustahkamlanishi lozim. Jumladan, agar ijroni kechiktirish undiruvchi uchun sezilarli zarar keltirib chiqarishi yoki qarorni keyinchalik ijro etish imkoniyati yo‘qolib qolishi ehtimoli mavjud bo‘lsa, bunday chorani qo‘llash o‘rinli hisoblanadi. Masalan, undiriladigan mol-mulkning yo‘qotilishi yoki begonalashtirilishi xavfi mavjud bo‘lgan holatlarda.

Zarur hollarda sudya da‘vogarning roziligi bilan qarorning qaytarma ijrosini ta‘minlash choralari ham belgilashi mumkin. Hal qiluv qarorini darhol ijroga qaratish vakolati sudyaning muhim diskretion vakolatlaridan biri bo‘lib, u undiruvchi manfaatlarini himoya qilish, sud hujjatlarining samarali va o‘z vaqtida ijro etilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

4. Ijro varaqasini berish bo‘yicha sudyaning vakolatlari.

Ijro varaqasi sud tomonidan rasmiylashtiriladigan hamda sud hujjatining majburiy ijro etilishini tasdiqlovchi protsessual hujjat hisoblanadi. Fuqarolik protsessual kodeksi va Iqtisodiy protsessual kodeks normalariga muvofiq, ijro varaqasi qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida sud tomonidan beriladi.⁷ Ijro varaqasini rasmiylashtirish sudyaning mutlaq vakolatiga kiradi va ushbu vakolat boshqa biror organ tomonidan amalga oshirilishi mumkin emas. Mazkur holat sud hokimiyatining majburiy ijroga oid imperativ funksiyasini ifodalaydi.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi FPK 266-moddasi (darhol ijro etiladigan hal qiluv qarorlari) va 267-moddasi (sud tashabbusi bilan darhol ijro etilishiga sudning yo‘l qo‘yish huquqi). <https://lex.uz/docs/3517337>.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 449-450-moddalari; Iqtisodiy protsessual kodeksining 335-336-moddalari.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, ijro hujjatlari, jumladan ijro varaqasi va sud buyrug‘i, elektron shaklda rasmiylashtirilishi hamda sudyaning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan holda axborot tizimlari orqali taqdim etilishi mumkin.⁸ So‘nggi islohotlar natijasida ijro hujjatlarini, qoida tariqasida, elektron shaklda berish amaliyoti joriy etilib, ular QR-kod orqali tasdiqlanishi va elektron raqamli imzo bilan rasmiylashtirilishi belgilandi. Bu esa ijro jarayonini raqamlashtirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.⁹

Ijro varaqasini berish jarayonida sudya bir qator muhim protsessual masalalarni hal etadi. Jumladan, sud hujjatining qonuniy kuchga kirganligini tekshiradi, ijro hujjatini undiruvchiga berish yoki uni bevosita majburiy ijro organiga yuborish masalasini hal qiladi. Ayrim toifadagi talablar, xususan davlat byudjeti foydasiga undiriladigan summalar bo‘yicha ijro hujjatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli ijro organiga yuboriladi.¹⁰ Shuningdek, ijro hujjatining asl nusxasi yo‘qolgan taqdirda sudya uning dublikatini berish vakolatiga ega. Zarur hollarda, ijro bir nechta hududlarda yoki bir nechta undiruvchilar foydasiga amalga oshirilishi lozim bo‘lsa, sud tomonidan bir nechta ijro varaqalari berilishi mumkin.¹¹

5. Ijroni kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib ijro etish va ijro usulini o‘zgartirish bo‘yicha sudyaning vakolatlari.

⁸ “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonun, 7-modda; FPK, 7-moddaning 2-qismi (2015-yil 29-dekabrda O‘RQ-396-sonli Qonun tahririda).

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-yanvardagi PF-1-son “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. — <https://lex.uz/docs/-6723273>.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi 06/196-son “Sud hujjatlarini ijro etishga oid qonun hujjatlarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori, 2-band. — <https://lex.uz/docs/-1617964>.

¹¹ FPK 462-moddasi; “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi 3-qismi.

Sud hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlashda sudyaning muhim vakolatlaridan yana biri — ijroni kechiktirish, bo'lib-bo'lib ijro etish hamda ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish masalalarini hal etishdan iborat. Amaldagi protsessual qonunchilik sudyaga ushbu vakolatlarni amalga oshirish imkonini beradi.¹²

Ijro harakatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi obyektiv holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, sudya ijroni kechiktirishi yoki bo'lib-bo'lib ijro etish tartibini belgilashi mumkin. Ushbu masalalar davlat ijrochisining tashabbusi yoki taraflarning arizalari asosida ko'rib chiqiladi. Sudya bunday hollarda taraflar manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga intiladi, ya'ni bir tomondan undiruvchining huquqlarini samarali himoya qilishni, ikkinchi tomondan esa qarzdorning real moliyaviy holatini inobatga olishni ko'zda tutadi.

Ijroni kechiktirish to'g'risida qaror qabul qilinganda, sudya zarur hollarda qarzdorning hisobvaraqlariga qo'yilgan taqiq (xatlov)ni vaqtincha bekor qilish masalasini ham hal qilishi mumkin. Bu esa qarzdorga sud hujjatini ixtiyoriy ravishda bajarish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish vakolati esa ijro jarayonida yuzaga kelgan murakkabliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Masalan, sud hujjatida nazarda tutilgan muayyan harakatni bajarishning imkoni bo'lmagan taqdirda, sudya uni pul shaklida undirish bilan almashtirishi yoki mol-mulk turini o'zgartirishi mumkin. Mazkur vakolat sud hujjatining mazmunini o'zgartirmagan holda uning amalda bajarilishini ta'minlashga qaratilgan.

MUHOKAMA

¹² FPK 105-115-moddalari (da'voni ta'minlash); 451-moddasi (ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddati); <https://lex.uz/docs/3517337>.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sud hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlashda sudyaning vakolatlari murakkab va ko'p qirrali tizimni tashkil etadi. Sudya ijro jarayonida bevosita davlat ijrochisi funksiyalarini bajarmasligiga qaramasdan, uning protsessual vakolatlari sud hujjatlarining amalda to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sudyaning mazkur sohadagi vakolatlarini shartli ravishda uch asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh — sud hujjatini ijroga tayyorlash bilan bog'liq vakolatlar bo'lib, ularga hal qiluv qarorini aniq va ijro etilishi mumkin bo'lgan shaklda bayon etish, uni darhol ijroga qaratish hamda ijro varaqasini rasmiylashtirish kiradi. Ikkinchi guruh — ijro jarayonini tartibga solish va boshqarishga oid vakolatlar bo'lib, bunda ijroni kechiktirish, bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish kabi choralar nazarda tutiladi. Uchinchi guruh — sud nazoratini amalga oshirishga doir vakolatlar bo'lib, ular davlat ijrochisi qarorlari va harakatlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish hamda qaytarma ijro masalalarini hal etishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, sudyaning ijro bosqichidagi vakolatlarini amalga oshirishda amaliy muammolar mavjudligi aniqlandi.

Avvalo, sud organlari bilan Majburiy ijro byurosi o'rtasidagi axborot almashinuvi tizimi yetarli darajada samarali yo'lga qo'yilmagan. Amaliyotda sud hujjati chiqarilgandan so'ng uning ijrosi yuzasidan sudga o'z vaqtida va to'liq ma'lumot kelmasligi holatlari uchrab, bu sud nazoratini amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Ikkinchidan, qonunchilikda ijro harakatlarini amalga oshirish uchun aniq muddatlar belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu muddatlarga rioya etilmaslik

holatlari kuzatilmoqda. Bu esa undiruvchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini to‘liq ta‘minlashga to‘sqinlik qilmoqda.

Uchinchidan, sudyaning ijroni kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib ijro etish va ijro etish usulini o‘zgartirishga doir vakolatlari turli sudlarda turlicha qo‘llanilmoqda. Ushbu vakolatlarni amalga oshirishning yagona mezon va standartlari yetarli darajada shakllanmaganligi sababli, o‘xshash holatlar bo‘yicha turlicha sud qarorlari qabul qilinishi ehtimoli mavjud.

To‘rtinchidan, davlat ijrochisi qarorlari va harakatlari ustidan shikoyatlarni ma‘muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqish tizimi nisbatan yangi bo‘lib, ushbu yo‘nalishda sud amaliyoti va metodologik asoslar hali to‘liq shakllanmagan. Bu esa mazkur toifadagi ishlarni ko‘rib chiqishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Beshinchidan, sud hujjatlarini ijro etish tizimini raqamlashtirish jarayoni hali to‘liq yakuniga yetmagan. So‘nggi normativ-huquqiy hujjatlar bilan muhim islohotlar boshlangan bo‘lsa-da, ularni amaliyotga to‘liq joriy etish ma‘lum vaqt talab etadi.

Alohida e‘tiborga molik jihatlardan yana biri — “Majburiyatlar reyestri” institutining joriy etilganidir. Mazkur mexanizm qarzdorning mol-mulki yetarli bo‘lmagan hollarda uning majburiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni maxsus reyestrda kiritish orqali ijro samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu institut qarzdorlarga nisbatan qo‘shimcha iqtisodiy va ijtimoiy ta‘sir vositasi sifatida ularni majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishga undaydi.¹³

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sud hujjatlarining to‘liq ijrosini ta‘minlamasdan turib, huquq ustuvorligi, adolatli sudlov va huquqiy demokratik jamiyat

¹³ “Iqtisodiy sud hujjatlarini ijro etish — muhim bosqich”. — Tertu.uz rasmiy sayti, 2023. — <https://tertu.uz/uz/blog/okimlik-yangiliklari/1915>

barqarorligini ta'minlash mumkin emas. Shu bois sud hujjatlari ijrosi nafaqat alohida shaxslarning manfaatlari, balki butun huquqiy tizimning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ayrim Yevropa mamlakatlarida sud-ijro tizimi xususiy model asosida tashkil etilgan bo'lib, sud ijrochilari bevosita sud nazorati ostida faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasida esa Majburiy ijro byurosi prokuratura tizimiga kiradi va sud nazorati asosan shikoyatlar asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sud hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlashda sudyaning vakolatlarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiqdir:

- sud va Majburiy ijro byurosi o'rtasida samarali elektron axborot almashinuvi tizimini yaratish hamda ijro jarayoni haqida real vaqt rejimida ma'lumot olish imkoniyatini ta'minlash;
- sudyaning ijroni kechiktirish, bo'lib-bo'lib ijro etish va ijro usulini o'zgartirishga oid vakolatlarini amalga oshirish mezonlarini yagona tartibda belgilash;
- ijro varaqasini berish jarayonini to'liq elektronlashtirish va uni protsess ishtirokchilari uchun qulaylashtirish;
- sud hujjatlarini bajarmaslik va majburiy ijro jarayoniga aralashganlik uchun javobgarlik choralarining samaradorligini oshirish hamda tegishli sud amaliyotini tizimlashtirish.

XULOSA

Sud hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlashda sudyaning vakolatlarini o'rganish natijasida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, sud hujjatlarining majburiyligi prinsipi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 138-moddasi, “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun hamda protsessual qonun hujjatlarida mustahkamlangan bo‘lib, u sud hokimiyatining mustaqilligini ta‘minlash va odil sudlov samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy kafolatlardan biri hisoblanadi. Mazkur prinsip sud hujjatlarining universal, hududiy jihatdan to‘liq, shartsiz va imperativ kuchga ega ekanligini ifodalaydi.

Ikkinchidan, sud hujjatlarining bevosita majburiy ijrosi Majburiy ijro byurosi organlari zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa-da, sudya ijro jarayonining turli bosqichlarida muhim huquqiy vakolatlarga ega. Jumladan, hal qiluv qarorini qabul qilish, ijro varaqasini rasmiylashtirish, sud hujjatini darhol ijroga qaratish, ijroni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib ijro etish, ijro usuli va tartibini o‘zgartirish, shuningdek, davlat ijrochisi harakatlari ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiqish hamda qaytarma ijro masalalarini hal etish shular jumlasidandir.

Uchinchidan, sudyaning ijro bosqichidagi vakolatlarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: sud hujjatini ijroga tayyorlashga oid vakolatlar; ijro jarayonini tashkil etish va boshqarishga oid vakolatlar; ijro jarayoni ustidan sud nazoratini amalga oshirishga qaratilgan vakolatlar. Ushbu vakolatlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, sud hujjatlarining real va samarali ijrosini ta‘minlovchi yaxlit tizimni tashkil etadi.

To‘rtinchidan, sud hujjatini ijro etmaslik hamda majburiy ijro jarayoniga noqonuniy aralashuvlar uchun yuridik javobgarlik instituti sud hujjatlarining majburiyligini ta‘minlashning muhim huquqiy mexanizmlaridan biridir. Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 198²-moddasi hamda Jinoyat kodeksining 232 va 232¹-moddalari ushbu munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur jarayonda sudya

yuridik javobgarlik choralarini qo'llash masalalarida muhim ahamiyatga ega subyekt hisoblanadi.

Beshinchidan, 2024-yil 3-yanvardagi PF–1-son Prezident Farmoni sud hujjatlarini ijro etish tizimini takomillashtirish hamda sohani raqamlashtirish yo'nalishida yangi bosqichni boshlab berdi. Ijro hujjatlarining yagona elektron bazasi, "Majburiyatlar reyestri" instituti hamda ijro hujjatlarini elektron shaklda yuritish kabi yangiliklar sud hujjatlarining samarali ijrosini ta'minlashda muhim huquqiy va tashkiliy imkoniyatlar yaratdi.

Oltinchidan, sud hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida sud va Majburiy ijro byurosi o'rtasida elektron axborot almashinuvini rivojlantirish, sudyaning diskretion vakolatlarini amalga oshirish mezonlarini aniq belgilash, sud amaliyotini umumlashtirish, ijro tizimini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda yuridik javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sud hujjatlarining samarali ijrosi sudya, davlat ijrochisi, undiruvchi, qarzdor hamda boshqa ishtirokchilarning o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Ushbu jarayonda sudyaning vakolatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, ularning to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirilishi sud hokimiyatining nufuzi, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchi hamda mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

2. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni;
3. O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni, 29.08.2001-y., 258-II-son;
4. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, 22.01.2018-y;
5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi, 24.01.2018-y;
6. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, 22.09.1994-y.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-yanvardagi PF-1-son “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-apreldagi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-762-son Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi 06/196-son “Sud hujjatlarini ijro etishga oid qonun hujjatlarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori (2021-yil 20-apreldagi 18-son qarori tahririda).
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi 7-son “Sud hujjatlarini bajarishdan bo‘yin tovlash hamda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish jarayoniga aralashganlik uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori (2023-yil 20-noyabrdagi 31-son qarori tahririda).
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-maydagi 12-son “Sudning hal qiluv qarori haqida”gi qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 16-dekabrda
37-son “Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti
to‘g‘risida”gi qarori.

INTERNET MANBALARI:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi:
<https://lex.uz>.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatlari yagona portali: <https://gov.uz>.
3. “Norma” axborot-huquqiy portali: <https://www.norma.uz>.
4. “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimida qanday
o‘zgartirishlar bo‘ldi”. — Norma.uz, 2022. —
https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/sud_hujjatlari_va_boshqa_organlar_hujjatlarini_ijro_etish_tizimida_qanday_uzgartirishlar_buldi.
5. “Davlat ijrochisi faoliyati yuzasidan shikoyatlar endi faqat ma’muriy
sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladi”. — Gazeta.uz, 27.04.2023. —
<https://www.gazeta.uz/oz/2023/04/27/mamuriy-sud/>.
6. “O‘zbekistonda sud hokimiyati mustaqilligining huquqiy kafolatlari”. —
O‘zbekiston Respublikasining Malayziyadagi Elchixonasi rasmiy sayti. —
<https://uzbekembassy.com.my>.
7. “Iqtisodiy sud hujjatlarini ijro etish — muhim bosqich”. — Tertu.uz,
2023. — <https://tertu.uz/uz/blog/okimlik-yangiliklari/1915>.